

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**


QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor**

I. Bekpulatov

2026y.



**13.00.01 – PEDAGOGIKA NAZARIYASI. PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR
TARIXI IXTISOSLIGIDAN KIRISH IMTIHON
DASTURI**

Tuzuvchilar:

p.f.d., professor R.D. Shodiyev

p.f.d.(DSc), professor Sh.O’ Nurullayeva

p.f.d.(DSc), professor . I.B Kamolov

Ushbu dastur universitet Kengashining 20 26 yil “ 27 ” avgust dagi
1 -sonli majlisida tasdiqlangan

Qarshi– 2026

ANNOTATSIYA

Ushbu dastur 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisoslik fanidan imtihon bo'yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini, uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu asosida bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog'lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo'lib, unda ta'lim nazariyasining umumiy masalalari bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar, kasbiy va pedagogik kompetensiyaga doir imtihon savollaridan namunalar tavsiya etilgan.

Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqildi. Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim va tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishga e'tibor kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida talabalarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish asosida takomillashtirish muhim o'rin egallaydi.

"Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" fani O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 60-sonli PF hamda boshqa me'yoriy-huquqiy qonun hujjatlari asosida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Uning asosiy maqsadi – pedagogika ixtisosligi bo'yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasi, ushbu fanning shakllanish va rivojlanish tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologik asoslari, manbalarini, mazkur bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog'lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotlar, shu jumladan, chet el davriy nashrlari hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko'rsatib berishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dastur muayyan darajada xizmat qiladi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 60-sonli PF, mamlakatimizda ta'lim jarayonini rivojlantirish maqsadida belgilangan konseptual g'oyalar mazkur dastur uchun ilmiy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi davrda pedagogika fani pedagogik madaniyatni rivojlantirish, yoshlarda yangicha tafakkurni tarkib toptirish, umumiy kasb tayyorgarligikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Pedagogika nazariyasi va tarixidan pedagogik ma'lumotga ega har bir talabgor, qaysi fan mutaxassisi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilim va ko'nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablarini bilishlari lozim.

Pedagogika tarixi talabgorning pedagogik bilim darajasini, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo'lishini aniqlaydi. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta'lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bunda pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob berganligi, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya nazariyasi va amaliyot ekani hisobga olingan. Ta'lim amaliyoti, shuningdek, ta'limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiyalar, ta'limotlarni tavsiflaganda shu ta'limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni asos qilib olish nazarda tutilgan.

Dastur pedagogika tarixini kishilik jamiyatining taraqqiyoti tarixi bilan uzviy aloqada bayon etishga mo'ljallangan. Pedagogik fikr rivojlanishini izchil o'rganish bo'lajak mutaxassislarga hozirgi davrda o'tmishning ilg'or pedagogikasining uzviy davomi ekanligini ko'rsatish, kelajak maorif va pedagogika taraqqiyoti yo'nalishlarini anglab olishga yordam beradi.

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi” fanining maqsad va vazifalari:

- talabgorlarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish;
- ta'limiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida ularda ta'lim samaradorligini oshirish uchun zarur ko'nikmalarni hosil qilish;
- pedagogik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish;
- pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish;
- “Ta'limning pedagogik qonuniyatlari hamda tamoyillari”ga mos holda tegishli qarorlar qabul qilish;
- Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, K.D. Ushinskiy va boshqa mutafakkirlarning ta'limiy-axloqiy, umumbashariy qadriyatlari,

“Qur’oni Karim” va “Hadisi Sharif”da umuminsoniy va ma’naviy-axloqiy tamoyillarni bilish;

- hozirgi zamon ta’lim texnologiyalarini bilish hamda ularni amaliyotda qo’llay olishdan iboratdir.

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” fanidan bilim va ko’nikmalarga qo’yiladigan talablar

“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” fanidan bilim va ko’nikmalarga qo’yiladigan talablar o’quv fanini o’rganish jarayonida quyidagi pedagogik tushunchalarni bilish va ko’nikmalarga ega bo’lishi zarur:

- ta’lim-tarbiya ishlarini mustaqillik g’oyalariga monand hamda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga uyg’un holda o’tkazish;

- pedagogik faoliyatni rejalashtirishda istiqbolni ko’zlab maqsad, vazifalarni belgilash;

- amaliyotda o’qitish hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy shakllarini qo’llash;

- amaliyotda o’qitish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo’llash, ma’lum vaziyatlarda ulardan to’g’ri foydalana bilish;

- ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shuningdek, Sharq va G’arbning ilg’or pedagogik tajribalaridan foydalangan holda tashkil etish;

- o’z oldiga qo’ygan vazifalarni to’g’ri bajarilishini ta’minlash;

- shaxs faoliyati va xulqini rag’batlantirib borish;

- pedagogik vaziyatlar, ta’lim va tarbiya natijalarini tahlil eta olish, jamoani o’rganish; o’zlashtirmaslik sabablarini, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali tadbirlarni belgilash;

- o’z bilimini oshirib borish, amaliyotda pedagogika fani yutuqlari, ilg’or tajribalaridan foydalanish, qulay pedagogik tadqiqotlar o’tkazish, pedagogik faoliyatida yuzakilik va bir qolipda ishlashga yo’l qo’ymay, ishga ijobiy munosabatni namoyon etish;

- guruh rahbarligi va tarbiyachi-murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish, ota-onalar, mahalla, jamoatchilik bilan o’zini o’zi boshqarishni tashkil etish. Talabgor “Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta’limotlar tarixi” ixtisosligini o’rganish davomida zamonaviy ta’lim texnologiyasi, kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olishini namoyon eta olishlari zarur.

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo’yicha tuzilgan malakaviy imtihon dasturi umumiy pedagogika fanining bir tarmog’i bo’lib, u ilmiy xodimning yuqori malakali mutaxassis bo’lishi uchun muhim bilimlarni o’z ichiga oladi. Imtihon topshiruvchi-tadqiqotchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo’lishi, pedagogika fanining boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan bog’liq ilmiy metodologik masalalardan xabardor bo’lishi, shu bilan birga u o’z bilimidan ilmiy va amaliy vazifalarni to’g’ri hal etishda foydalanishi lozim.

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha tuzilgan malakaviy imtihon dasturining asosiy mazmuni.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi

Pedagogika nazariyasi fanining mazmuni, mohiyati va predmeti.

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari. Pedagogik fanlarning tuzilishi. Pedagogik fanlar tizimi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif.

Pedagoglik kasbining jamiyatdagi o'rni.

O'qituvchi haqida tushuncha. O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. O'qituvchilik kasbining bugungi kundagi ahamiyati va roli.

Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekt va subyekti sifatida.

Shaxs haqida tushuncha. Shaxsning rivojlanishi. Shaxs rivojlanishining omillari. Bola shaxsi tarbiya obyekti va subyekti sifatida. Shaxs faolligi.

Yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogik tizimlar va ularning shakllari haqida tushuncha. Ta'lim tizimlariga umumiy tavsif. Yaxlit pedagogik jarayonning mohiyati. Pedagogik jarayon yaxlit hodisa sifatida. Pedagogik jarayonni yaratish shart- sharoitlari.

Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida.

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Didaktik kategoriyalarning mazmun mohiyati.

Ta'lim jarayoni yagona tizim sifatida.

Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim jarayoni mohiyati. O'rganish bilish faolligi shakli sifatida. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Sharq va G'arb mutafakkirlarining gnoseologik g'oyalari ta'lim jarayoni asosi sifatida. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.

Umumiy o'rta ta'limi mazmuni.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalari. Ta'lim mazmunini tashkil etish konsepsiyasi. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti. O'quv rejasi. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari tavsifi.

Ta'lim metodlari va vositalari.

Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Sharq mutafakkirlari ta'lim metodlari haqida. Ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari.

Dars - maktabda ta'limni tashkil qilishning asosiy shakli. Ta'lim turlari. Ta'limni tashkil qilish shakllari haqida tushuncha. Ta'limni tashkil qilishning an'anaviy sinf-dars shakli. Dars turlari va tuzilishi. Dars va dars mashg'ulotining bir-biridan farqli tomonlari. Ta'limni tashkil qilishning noan'anaviy shakllari:

o'quv dialogi, munozara, didaktik o'yinlar, trening va boshqalar. O'quv ishlarini tashkil qilishning darsdan va ta'lim muassasasidan tashqari shakllari.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funktsiyalari. Ta'lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari. Metodik, didaktik, pedagogik talablarning mazmun-mohiyati. PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS xalqaro baholash dasturlarini joriy etishning me'yoriy huquqiy asoslari va ahamiyati.

Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.

Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati. Tarbiya jarayonining tizimi va tuzilishi hamda uning qonuniyatlari. Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya tamoyillari. Tarbiya turlari.

Jamoa tarbiya obyekti va subyekti sifatida.

Jamoa tushunchasi. Bolalar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Bolalar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. Bolalar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Tarbiyaning umumiy metodlari.

Tarbiya metodlari mohiyati va uning tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish metodlari va xulq-atvorni tuzatish. Tarbiyada nazorat, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Aqliy tarbiya.

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllantirish o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. Aqliy tarbiya. Aqliy tarbiyaning maqsadi va mazmuni. Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish - aqliy tarbiyaning asosi.

Fuqarolik tarbiyasi. Huquqiy tarbiya.

Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari. Fuqarolik tarbiyasi funksiyalari. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi. Vatanparvarlik va baynalminallik fuqarolik tarbiyasi asosi. Huquqiy tarbiya. Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish - fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi.

Mehnat tarbiyasi. Iqtisodiy tarbiya.

Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Iqtisodiy tarbiya mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida.

Axloqiy tarbiya. Estetik tarbiya.

Axloq ijtimoiy ong, ta'sir etish va tarbiya shakli sifatida. Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Oilaviy hayotga axloqiy tayyorgarlik. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

Ekologik tarbiya. Jismoniy tarbiya.

Ekologik tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Ekologik tarbiyaning shakl va metodlari. O'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.

Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Uzlaksiz ta'lim tizimi, uning tarkibiy qismlari va darajasi. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

Pedagogik menejment nazariyasi va amaliyoti.

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni boshqarish. Ta'lim muassasasi Ustavi - rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Boshqaruv tushunchasi. Boshqaruv metodlari. Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish. Pedagogik tizim tavsifi.

Ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish. Ta'lim muassasasida ichki nazoratni tashkil etish. Ta'lim sohasida attestatsiya. Talim jarayonini metodik boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ta'lim muassasasida ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va undan foydalanish.

Korreksion pedagogika asoslari.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Korreksion pedagogika turlari. Defektologiya fani va uning dolzarb masalalari. Sensor nuqsonli bolalar. Oligofrenopedagogika fanining bahsi va undan foydalanish uslublari. Inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asoslari. Inklyuziv ta'lim tamoyillari.

Pedagogika tarixi fani haqida ma'lumot.

Fanning maqsadi va vazifalari. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo'lishi.

IX-XII asrlar Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi.

Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiya masalalari haqida tushuncha hosil qilish. (Xorazmiy, Farobiy, Fargoni, Beruniy, Ibn Sino, Javhariy, Mavriziy, Jurjoni va hokazo). Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik", Kaykovusning "Qobusnoma" asari – pandnoma asar sifatida. Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar.

XII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda madaniyat, maktab va pedagogik meros.

XII asr oxiri XIV asrning birinchi yarmigacha Movarounnahr va Xurosonda maktab va pedagogik meros. Najmiddin Kubro «Al-usul al-ashara», Fariduddin

Attor «Mantiq ut-tayr», «Pandnoma», «Ilohiynoma», «Ushturnoma», Muslihiddin Sa'diy «Guliston», «Bo'ston», Sayfiddin Boxarziy ruboiylar, Jaloliddin Rumi «Masnaviyi ma'naviy», Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy «Qissasi Rabg'uziy», Nosiriddin Tusiy «Axloqi Nosiriy», Aziziddin Nasafiy «Al-inson al-komil», Mahmud Shabustariy «Gulshani roz», Avfiy Buxoriy «Javomi ul-hikoyot», Pahlavon Mahmud ruboiylar, Xusrav Dehlaviy «Xamsa», Ziyovuddin Naxshabiylarning «To'tinoma» kabi didaktik asarlari.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda tarbiya va maktab.

Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. Movarounnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi. Mirzo Ulug'bekning pedagogik goyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Ulug'bek davrida maktab islohoti. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji.

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi. Navoiyning o'qituvchi (mudarris) to'g'risidagi fikrlari. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. «Axloqi Jaloliy» asarining pedagogik fikrlar rivojidadagi o'rni.

XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni. Munis Xorazmiyning «Savodi ta'lim» asari - husnixatga doir dastlabki qo'llanma sifatida. Muhammad Sodiq Qoshgariyning «Odob as-solihin» asari - yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.

XIX asrning 2 yarmi XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidadagi xizmati. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari.

1917-1945 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.

Xalq maorifi sohasida maktab darsliklari va o'quv qo'llanmalar yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonini mustabid tuzum maqsadiga muvofiq tashkil etilishi va uning salbiy oqibatlari.

1945-1990 yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Maorif sohasidagi urushdan keyingi holatlar, tahlil. Maktab darsliklari yaratish, ta’lim-tarbiya jarayonida maktablarning 4 yillik, 8 yillik, 9 yillik, 10 yillik islohotlarni maqsadga muvofiq tashkil etilishi va uning mazmun mohiyati.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji.

Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun Respublikamizda ta’lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlari.

Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmigacha jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.

Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to‘g‘risida. Qadimgi Rimda pedagogik g‘oyalar rivoji. G‘arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlangich ta’lim metodikasiga qo‘shgan hissasi. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

XIX asrning 2 yarmi - XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji.

XIX asrning oxiri XX asrda G‘arbiy Yevropa, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo‘nalishlari. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to‘g‘risida. Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.

Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Jahon mamlakatlari ta’lim tizimi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi. Ta’lim modellari. XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendensiyalar. Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari.

Baholash mezonlari

Kirish sinovi yozma ravishda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Talabalar javob yozishi lozim bo'lgan variantlarda 5 tadan savol bo'lib, ular mutaxassislikning tayanch fanlari - optika, molekulyar optika, molekulyar spektroskopiya fanlari asosida tuzilgan va har bir savolning javobiga maksimal 20 balldan ajratiladi.

Har qaysi savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Yozgan javobiga qo'yiladigan talablar
17,0-20,0	Qo'yilgan savolga to'liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo'l qo'yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
13,9-16,9	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
10,7-13,8	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.

0-10,6	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.
--------	---

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni // – Toshkent: 23 sentyabr, 2020.
2. Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 400 b.
3. Yo'ldoshev O'.J. tahriri ostida. Umumiy pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2017. - 376 b.
4. Hashimov Komiljon. Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/K.Hashimov, S. Nishonova. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. – 304 b.
5. Hasanboyeva O. va boshq. Pedagogika tarixi. Darslik. Mualliflar: O. Hasanboyeva, J. Hasanboyev, H. Homidov. – T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. 312 b.
6. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika (darslik). – T., «Fan va texnologiyalar», 2008. - 288 b.
7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazriyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017. - 418 b.
8. Умарова, М.Х. Теория и истории педагогики [Текст]: учебное пособие для направления бакалавриата область образования 5110900 - Педагогика и психология/М. Умарова. – Т.: Чулпан. 2018. – 372 с.
9. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А., Халикова Г.И. История педагогики (Учебник). 2017, 258 стр.
10. Нишонов С. Турдикулов Э.О. Педагогик атамалар луғати. – Т. “Фан” нашриёти, - 2008. – 198 б.
11. Калдибекова А.С. Умумий педагогика назарияси ва амалиётидан лаборатория машғулоти. – Т., 2013.
12. Ниёзов Ф., Ахмедова М.Э. Педагогика тарихидан семинар машғулоти. - Т.: Ношир, 2011.
13. Ахмедова М.Э. Педагогика назарияси ва тарихи (Ўқув қўлланма) – Т.: Тафаккур бўстони, 2011.
14. Izbullayeva, Gulchehra. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi XIII – XIV asrlar) [Matn]: o'quv qo'llanma / G. Izbullayeva. - Buxoro: «Sadridin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, 2019. - 180 b.

15. Сластенин В.А. и др. Педагогика Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под. ред. В.А. Сластенина. - М.: «Академия», 2013. - 576 с.

16. Подласый И.П. Педагогика: Учебник. — М.: Высшее образование, 2006. — 540 с.